



UDK: 811.512.133'373.72

O‘g‘iloy SIROJIDDINOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti
E-mail: sirojiddinovaogiloy89@gmail.com

PhD G.Bahodirova taqrizi asosida

O‘ZBEK FRAZEOLIGIK BIRLIKLARIDA “HAYO” KONSEPTI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek frazeologik birliklarida “hayo” konseptining lingvomadaniy jihatdan ifodalanishi tadqiq etiladi. Frazeologizmlar milliy tafakkur va axloqiy me‘yorlarni o‘zida namoyon etuvchi muhim til birliklari sifatida tahlil etiladi. Tadqiqot davomida “hayo” konseptining semantik maydoni va ramziy obrazlar orqali ifodalanish xususiyatlari aniqlanadi. Shuningdek, frazeologik birliklar orqali “hayo” tushunchasining ijtimoiy baholovchi, axloqiy-me‘yoriy va madaniy funksiyalari yoritib beriladi. Maqolada “hayo” konsepti antropotsentrik va lingvomadaniyatshunoslik yondashuvlari asosida tahlil qilinib, uning o‘zbek milliy mentalitetidagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Frazeologik birliklar, hayo konsepti, lingvomadaniyatshunoslik, milliy mentalitet, ramziy obraz, axloqiy qadriyat.

КОНЦЕПТ “ХАЁ” В УЗБЕКСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦАХ

Аннотация

В данной статье исследуется лингвокультурное выражение концепта «хаё» в узбекских фразеологических единицах. Фразеологизмы анализируются как важные языковые единицы, отражающие национальное мышление и нравственные нормы. В ходе исследования выявляются семантическое поле концепта «хаё» и особенности его выражения посредством символических образов. Также рассматриваются оценочные и культурные функции данного концепта в системе узбекского языка и культуры.

Ключевые слова: Фразеологические единицы, концепт «хаё», лингвокультурология, национальный менталитет, символический образ, нравственные ценности.

THE CONCEPT OF “HAYO” IN UZBEK PHRASEOLOGICAL UNITS

Annotation

This article examines the linguocultural representation of the concept of “Hayo” in Uzbek phraseological units. Phraseological expressions are analyzed as important linguistic units that reflect national mentality and moral norms. The study identifies the semantic field of the concept of “Hayo” and the features of its expression through symbolic imagery. The article also reveals the axiological and evaluative functions of the concept within the Uzbek linguistic worldview.

Key words: Phraseological units, the concept of “Hayo”, linguocultural studies, national mentality, symbolic imagery, moral values.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda konsept tushunchasi til, tafakkur va madaniyatning o‘zaro aloqasini yorituvchi muhim nazariy birlik hisoblanadi. Har bir millat dunyoni o‘ziga xos tarzda idrok etadi va bu idrok til birliklarida, ayniqsa frazeologizmlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘zbek xalqining axloqiy qadriyatlar tizimida “hayo” tushunchasi muhim o‘rin egallaydi.

“Hayo” – insonning ichki axloqiy nazorati, andisha, or-nomus, mulohazalilik kabi fazilatlarini mujassamlashtiruvchi murakkab konseptdir. Mazkur maqolaning maqsadi – o‘zbek frazeologik birliklari orqali “hayo” konseptining mazmuniy strukturasi aniqlash va uning lingvokulturologik talqinini ochib berishdir.

O‘zbek mentalitetida qadimdan hayo, andisha, uyat kabi axloqiy tushunchalarning qiymati baland bo‘lgan. Bu kabi tushunchalar asrlar davomida o‘z qiymatini yo‘qotmay kelayotgani ham buning yaqqol dalilidir. Ayniqsa, tadqiqotimizning asosiy predmeti bo‘lgan “hayo” konseptining diniy hamda dunyoviy jihatdan chuqur ildiz otgani uni ilmiy jihatdan alohida e‘tiborga molik hodisaga aylantiradi.

“Hayo” konseptining ham diniy, ham dunyoviy jihatdan o‘rganilishi uning lingvokulturologik jihatdan muhim o‘rinda turishini ko‘rsatadi. Biroq mazkur konsept o‘zbek frazeologik birliklari doirasida lingvomadaniy jihatdan tizimli va kompleks tarzda yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur

holat ushbu yo‘nalishda chuqurroq va kengroq tahlil olib borish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqotning bosh maqsadi “hayo” konseptining o‘zbek frazeologik birliklarida lingvomadaniy ifodalanish xususiyatlarini aniqlash va tavsiflashdan iboratdir. Ushbu maqsad asosida maqolada “hayo” tushunchasining milliy tafakkurdagi o‘rni, uning ramziy va baholovchi jihatlari hamda madaniy kodlar bilan bog‘liqligi ochib beriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Frazeologiya va konseptologiya masalalari V.Telia [1], Yu.Stepanov [2], A.Wierzbicka [3], Z.Popova, I.Sternin [4] kabi olimlar ishlarida keng yoritilgan. O‘zbek frazeologiyasi Rahmatullayev [5], Mahmudov [6], Mirtojiyev ishlarida tizimli tahlil qilingan. Ammo axloqiy konseptlarning kognitiv strukturasi o‘rganish hali yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Konsept tadqiqi milliy ongning til orqali namoyon bo‘lish mexanizmini tushunishga xizmat qiladi. “Hayo” konsepti axloqiy-estetik bahoga ega bo‘lgan madaniy konsept sifatida hali yetarlicha tizimli o‘rganilmagan, bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur maqolada tavsifiy, semantik va lingvomadaniy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tavsifiy metod orqali “hayo” konsepti bilan bog‘liq frazeologik birliklar aniqlandi va tasniflandi. Semantik tahlil orqali esa

mazkur frazeologizmlarning ma'no qirralari, baholovchi xususiyatlari va konnotativ jihatlarini ochib berildi.

Lingvomadaniy metod yordamida frazeologik birliklarda qo'llanilgan ramziy obrazlar orqali madaniyat va til o'rtasidagi uzviy aloqa tahlil etildi. Tadqiqot davomida o'zbek tilining izohli va frazeologik lug'atlaridan asosiy manba sifatida foydalanildi. Shuningdek, lingvomadaniyatshunoslik va konseptologiya yo'nalishidagi nazariy qarashlar metodologik asos sifatida xizmat qildi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijasi shuni ko'rsatadiki, hayo axloqshunoslik tushunchasi bo'lib, go'zal xulqning asosiy omillaridan biri sanaladi. Sinxron aspektidagi tadqiqotlar hayo tushunchasini ifodalovchi leksema va frazemalarni til sohibi, ya'ni insonning dunyoqarashi, turmush tarzi va madaniy aloqalari jihatidan tahlil qilishga qaratilgan.

Antroposentrik paradigmadagi tadqiqotlarda leksema va frazemalarning ijtimoiy-madaniy munosabatlarga aloqador belgilari namoyon bo'ladi. "Hayo" konsepti inson axloqiy ongi bilan bog'liq ravishda yuz beradigan empirik tuyg'u bo'lib, u shaxsning xulq-atvorini boshqaruvchi ichki mexanizm vazifasini bajaradi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da "Hayo – nojo'ya, noma'qul xatti-harakatdan tiyilish hissi; uyat, sharm" tarzida izohlangan. Ushbu lug'atda hayo so'zining sinonimik qatoriga uyat, sharm, nomus, kamtarlik, adab kabi so'zlar kiritilgan bo'lib, ulardan "uyat" leksemasi mazkur sinonimik qator uchun dominant birlik hisoblanadi.

Hayo konseptini ifodalovchi frazeologizmlar o'zbek tilida keng o'rin egallaydi. Bu guruhdagi frazeologizmlar, asosan, insonni nomaqbul xatti-harakatdan tiyilishini ifodalab, ma'naviy nazorat hissinini namoyon etadi. "Hayo pardasi" shaxsning ichki o'dob-axloq mezonlarini, "hayo saqlamoq" axloqiy me'yorlardan oshmaslikni, "hayo qilmoq" esa nojo'ya ishini sodir etmaslik holatini ifodalaydi. "Hayo" konseptining yadrosi quyidagi semalar bilan tavsiflanadi: axloqiy poklik, ijtimoiy me'yorlarga bo'ysunish, o'zini tuta bilish, uyatchanlik va mulohazalilik. Frazeologik birliklar orqali bu semalar obrazli shaklda ifodalanadi: uyatdan yerga kirgudek bo'lish,

yuziga qizil yugurmoq, ko'zini yerga tikmoq kabi birliklar hayo bilan bog'liq psixologik holatni ifodalaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tahlil etilgan frazeologik birliklar o'zbek madaniyatida, ayniqsa, ayollik va insoniy go'zallik bilan bog'liq axloqiy idealni aks ettiradi. "Ibo-hayo bilan o'tirmoq", "yerga qarab qolmoq", "og'zini ochishga hayo qilmoq" kabi frazeologizmlar hayo konseptining ijobiy qirrasini sifatida namoyon bo'ladi.

Hayoning yo'qolishi esa o'zbek madaniyatida keskin qoralanadi. Bu holat frazeologik birliklarda salbiy baho orqali ifodalanadi. Jumladan, "ibo-hayodan asar qolmaslik" axloqiy tanazzulni, "yuzsiz bo'lib ketmoq" esa shaxsda uyat hissining yo'qolishini bildiradi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, hayo frazeologizmlarda ramziy obrazlar orqali ifodalangan. "Parda", "yuz", "ko'z" kabi ramzlar hayo konseptining asosiy belgilaridan biri hisoblanadi. Bu ramzlar Sharq xalqlari, xususan, o'zbek madaniyatiga xos bo'lgan axloqiy va estetik qarashlarni ifodalaydi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, hayo konsepti o'zbek madaniyatida asosiy o'rinni egallovchi ma'naviy qadriyatlardan biridir. O'zbek frazeologizmlarida bu konsept:

o'dob-axloq me'yori;

shaxsning o'z ijtimoiy nazorati;

milliy mentalitet belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot davomida hayo konsepti bilan bog'liq frazeologizmlar semantik jihatdan bir necha guruhlarga ajratildi va ular orqali shaxsning ijobiy hamda salbiy xususiyatlari ochib berildi. Shu bilan birga, frazeologik birliklarda qo'llanilgan ramziy obrazlarning lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilindi. Til va madaniyat o'rtasidagi uzviy aloqa hayo konsepti misolida yaqqol namoyon etildi.

Mazkur tadqiqot natijalari o'zbek tilshunosligida konseptologik va lingvomadaniy tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi, shuningdek, frazeologiya, madaniyatshunoslik va ta'lim sohalarida amaliy ahamiyat kasb etishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Телия В.Н. Фраzeология в контексте культуры / Отв. ред. — М.: Языки рус. культуры, 1999. — 336 с. — Библиогр. в конце ст.
2. Степанов Ю.С. Константы: словарь русской культуры. М.: Академический проект, 2001. 990 с.
3. Anna Wierzbicka. Understanding Cultures through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. New York: Oxford University Press, 1997. 318 pp.
4. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика: учебное издание. М.: АСТ «Восток-Запад», 2007.
5. Rahmatullayev Sh. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari. – Toshkent: Fan, 1966.
6. Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. -110 b.
7. Xolmurodova, G. (2025). "Uyat" konsepti misolida leksik tizimning paradigmatic tahlili. Евразийский журнал академических исследований, 5(11(LPTIENP)), 168–169. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/ejar/article/view/139607>
8. Sirojiddinova O. G. Omonimlar. Nutqda omonimlardan foydalanish //Ta'lim fidoyilari. – 2022. – T. 4. – С. 79-83.
9. Bahodirovna B. G. On terminological derivation and the evolutionary development of sectoral vocabulary: The lexicon of embroidery, skullcap-making, and gold embroidery //Modern American Journal of Linguistics, Education, and Pedagogy. – 2025. – T. 1. – №. 3. – С. 553-559.
10. Bahodirova, G. (2024). Zamonaviy terminologiyada ilmiy termin va kasb-hunar termini tushunchalari talqini muammolari. News of the NUUZ, 1(1.10), 228-231.
11. Bahodirovna, B. G. (2023). Kashtachilik leksikasining leksik-semantik tasnifi. Science and innovation, 2(Special Issue 5), 222-226.
12. Bahodirova Gulruh Bahodirovna. (2024). Interpretation of Embroidery Terms in Dictionaries. Excellencia: International Multi-Disciplinary Journal of Education (2994-9521), 2(6), 981-983. <https://doi.org/10.5281/>
13. MUMINOVA M. Analysis Of Military Terms In Navoi Vocabulary //JournalNX. – T. 6. – №. 09. – С. 12-20.
14. Xo'jayev N. Tilshunolika badiiy matn tadqiqi //Uzbekistan language and culture. – 2024. – T. 2. – №. 02.
15. Sirjiddinova, O. (2025). O'ZBEK TILIDA "HAYO" KONSEPTINING LEKSIK-SEMANTIK, AKSIOLOGIK VA IJTIMOY TAHLILI. SCHOLAR, 3(16), 126–133. <https://doi.org/10.5281/zenodo.18080548>
16. O'zbek tilining izohli lug'ati. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.